


II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 21 699,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining -10,7 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 82,3 % ni), suv bilan ta'minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utelizatsiya qilish sanoatining – 16,1 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 1,4 % ni) o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash




Ishlab chiqaradigan sanoat



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utelizatsiya qilish


*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'mda




B– Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 84,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.


Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 17 863,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 82,3 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida



2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish





2024-yilning yanvar-sentabr oylari davomida jami sanoatda 24,4 ming tonna bug‘doy uni ishlab chiqarilgan bo‘lib, (2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 9,9 % ga kamaygan), 14,7 ming tonna paxta tolasi (5,0 % ko‘paygan), 9,9 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (59,9 % ga kamaygan) hamda 22,7 ming tonna paxta chigiti (87,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti turlari (yirik korxonalar bo‘yicha)

Mahsulot nomi	O‘lchov birligi	2024- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	t	24 353,7	71,0
Kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	51 725,5	193,3
Tozalangan o‘simlik yog‘i	t	7 411,0	114,5
Paxta tolasi	t	14 730,2	105,0
Paxta chigiti	t	22 676,4	87,7
Paxta linti	t	864,3	95,5
Xom ipak (pishitilmagan)	t	16,3	104,5
Paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarish	t	33 438,6	96,6

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	2024- yil yanvar-sentabr	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	5 968,7	5,1 m.
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	t	-	-
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	ming dona	179,4	46,6
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	ming dona	86 013,9	163,6
Elektr energiyasi	mln. kVt/s	4 760,9	93,6
Issiqlik energiyasi	ming gkal	70,5	160,1
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	114 273 065,0	134,4
Oqava suvlarning shlami	ming so'm	7 385 300,0	94,0
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	48 527 015,0	179,9

2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



Faoliyat turlari	mlrd. so'm	ulushi, % da
Ishlab chiqaradigan sanoat	17863,8	100,0
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	3675,6	20,6
ichimliklar ishlab chiqarish	977,8	5,5
tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	4609,8	25,8
kiyim ishlab chiqarish	27269	15,3
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	315,3	1,8
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	60,6	0,3
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	156,0	0,9
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	21,9	0,1
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	11,2	0,1
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	382,8	2,1

Faoliyat turlari	mlrd. so‘m	ulushi, % da
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	184,8	1,0
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	433,2	2,4
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	1205,6	6,7
metallurgiya sanoati	604,1	3,4
mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	644,5	3,6
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	10,9	0,1
elektr uskunarlar ishlab chiqarish	824,2	4,6
boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunarlar ishlab chiqarish	53,8	0,3
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	28,0	0,2
boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	1,6	0,0
mebel ishlab chiqarish	315,0	1,8
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	565,3	3,2
mashina va uskunalarni ta’mirlash va o’rnatish	53,0	0,3

Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2023- yil yanvar-sentabr oylarida – 1,2 % ni), o’rta-yuqori texnologiyalini ulushi 6,2 % ni (6,7 %), o’rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 12,9 % ni (13,5 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 60,3 % ni (61,0 %) tashkil etdi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo’yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4831,4 mlrd. so‘mni (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 94,2 % ni) tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-sentabr)

	2024- yil	2023- yil	2023- yilga nisbatan, % da
Elektroyenergiya - mln. kVt/s	4760,9	5084,9	93,6
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	70,5	44,0	160,1

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 296,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 1,4 % ni) tashkil etdi.




Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Norin tumani (2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 115,8 % ga), Kosonsoy tumani (112,1 % ga), Namangan tumani (110,8 % ga) hamda To'raqo'rg'on tumani (107,6 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o'sishi ta'minlandi.

	Sanoat mahsulotlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo'yicha jami	21 699,2	100,0	108,4
Namangan sh.	7 024,4	32,5	106,5
Mingbuloq	715,3	3,3	102,8
Kosonsoy	1 295,0	6,0	112,1
Namangan t.	1 297,5	6,0	110,8
Norin	496,2	2,3	115,8
Pop	570,0	2,6	106,2
To'raqo'rg'on	4 025,7	18,6	107,6
Uychi	1 050,6	4,8	107,2
Uchqo'rg'on	706,1	3,3	103,1
Chortoq	502,9	2,3	107,5
Chust	1 639,4	7,6	102,7
Yangiqo'rg'on	292,6	1,3	107,3

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**
(2024- yil yanvar-sentabr)
(o'tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 32,5 % ulushini), To'raqo'rg'on (18,6 %), Chust (7,6 %), Namangan tumani (6,0 %), Kosonsoy tumani (6,0 %), Uychi (4,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 16 281,7 ming so'm, Namangan shahrida 9 992,5 ming so'm, Namangan tumanida 6 675,8 ming so'm, Mingbuloq tumanida 5 182,8 ming so'm, Kosonsoy tumanida 5 633,0 ming so'm, Chust tumanida 5 697,4 ming so'mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Norin tumanida (2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 113,6 %), Kosonsoy (109,5 %), Namangan (108,3 %), To'raqo'rg'on (105,1 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Chust tumanida (100,5 %) va Uchqo'rg'on tumanida (101,1 %) o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da
(2024- yil yanvar-sentabr)




Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda
(2024- yil yanvar-sentabr)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 3427,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,5 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini
sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**
(2024- yil yanvar-sentabr)



**2024- yil yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2023- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat bo‘yicha	7 020,8	106,0
Namangan sh.	9 992,5	103,8
Mingbuloq	5 182,8	100,7
Kosonsoy	5 633,0	109,5
Namangan t.	6 675,8	108,3
Norin	2 802,6	113,6
Pop	2 402,9	104,3
To‘raqo‘rg‘on	16 281,7	105,1
Uychi	4 484,6	104,8
Uchqo‘rg‘on	3 783,7	101,1
Chortoq	2 323,3	105,3
Chust	5 697,4	100,5
Yangiqo‘rg‘on	1 225,2	105,1

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 447,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 48,2 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Norin (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 99,9 %), Yangiqo‘rg‘on (100,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Chust (7,7 %), Mingbuloq (27,7 %), Uchqo‘rg‘on (41,1 %) tumanlarida kuzatildi.

Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da
(2024- yil yanvar-sentabr)



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 131 ta loyiha bo'yicha 2 193,0 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

	2024-yil yanvar-sentabr	2023-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni	122	77
Korxonalar soni	85	58
Ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm)	2 193,0	1 467,5
Yaratilgan yangi ish o'rinlar (birlikda)	1 804	620

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 4 592 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 1 648 tasi Namangan shahriga, 361 tasi Kosonsoy, 352 tasi Namangan, 333 tasi Chust, 305 tasi To'raqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi.

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 631 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 71,3 % Namangan shahri, Yangiqo'rg'on, Norin va Kosonsoy tumanlariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan
sanoat korxonalari soni, birlikda**
(2024- yil 1-oktabr holatiga)

	2023- yil yanvar-sentabr faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (birlikda)	2024- yil yanvar- sentabr faoliyat ko'rsatayotga n korxonalar soni (birlikda)	2023- yil yanvar-sentabr yangi tashkil etilgan korxonalar soni (birlikda)	2024- yil yanvar- sentabr yangi tashkil etilgan korxonalar soni (birlikda)
Viloyat jami	5 084	4 592	693	631
Namangan sh.	1 832	1 648	169	165
Mingbuloq	132	130	41	46
Kosonsoy	396	361	51	61
Namangan t.	406	352	63	25
Norin	239	236	44	40
Pop	261	217	60	32
To'raqo'rg'on	369	305	70	37
Uychi	345	303	48	37
Uchqo'rg'on	282	251	52	35
Chortoq	200	191	21	27
Chust	399	333	45	42
Yangiqo'rg'on	223	265	29	84